

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti rektori:

Teshabayev To'lqin Zakirovich

Qabul vaqti: Chorshanba: 10:00-13:00

Telefon: (+99871) 238-64-15

E-mail: t.teshabayev@tuit.uz

Rektorning lavozim vazifalari:

- O'zbekiston Respublikasi qonunlari, Prezident farmonlari va farmoyishlari, Oliy Majlis va Vazirlar Mahkamasining ta'lim va kadrlar tayyorlash sohasidagi qarorlarini amalga oshirishni tashkil etish;
- Yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatli, mustaqil fikrlashga qodir bo'lgan, bozor sharoitida ishni tashkil etishning usullarini egallagan yuqori ma'lumotli malakali kadrlar tayyorlashni ta'minlash;
- Davlat ta'lim standartlari asosida yuqori malakali kadrlar tayyorlashni tashkil etish;
- TATUda O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da belgilangan vazifalar bajarilishini ta'minlash;
- TATUning tarkibiy tuzilmasidagi barcha bo'linmalar vakolatlarini belgilab berish, faoliyatlarini rejalashtirish, muvofiqlashtirish, boshqarish, TATUning boshqaruv lavozimlariga munosib kadrlarni tayyorlash, xodimlarni tanlash, rahbarlik lavozimiga tavsiya etish va ishga qabul qilish;
- Xodimlarni moddiy va ma'naviy rag'batlantirish, ijtimoiy muhofazasini ta'minlash, intizomiy jazo choralarini qo'llash;
- TATUning daromadlari shakllantirilishi va ulardan samarali foydalanilishi ustidan nazorat qilish;
- Ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish, ularning samaradorligini oshirish va tadqiqotlarning natijalarini amaliyotga keng joriy etish, oliy ta'lim, fan va ishlab chiqarishning o'zaro integratsiyasini ta'minlash;
- Uzluksiz ta'lim tizimi uchun yangi avlod o'quv adabiyoti yaratish konsepsiyasi talablariga muvofiq darsliklar va o'quv-metodik adabiyotlar yaratilishi, tarjima qilinishi va nashr etilishini tashkil etish;
- O'quv-tarbiya jarayonida o'qitishning ilg'or shakllarini, shu jumladan, masofadan turib o'qitish, yangi pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va ulardan samarali foydalanishni tashkil etish;
- Ma'naviy-ma'rifiy, tarbiyaviy ishlarga rahbarlik etish, xodimlar va talabalarda milliy g'oyani shakllantirish;
- Talabalikka, magistratura va stajyor-tadqiqotchi-izlanuvchilarni universitetga qabul qilish, o'qishdan chetlatish, tiklash, ichki-mehnat tartibiga rioya etilishini ta'minlash;
- Professor-o'qituvchilarning kasbiy malaka oshirishlarini ta'minlash;
- Talabalar, stajyor-tadqiqotchi-izlanuvchilar, ilmiy-pedagogik xodimlar uchun maishiy xizmat ko'rsatish va boshqa turdagi sharoitlarni tashkil etish, ularning ijtimoiy himoyasini ta'minlash;
- Fakultetlar va kafedralar faoliyati, o'quv jarayoni, ma'ruzalar, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari, o'quv va ishlab chiqarish amaliyotlari, boshqa turdagi mashg'ulotlar sifatining doimiy nazorat etilishini ta'minlash;
- TATUda mutaxassislar tayyorlanadigan yo'nalish va ixtisosliklar sohasining rivojlanish istiqbollari aniqlashga qaratilgan tadbirlarni tashkil etish (ilmiy-amaliy konferensiyalar o'tkazish, xalqaro anjumanlarda ishtirok etish, axborot makonidan foydalanish sharoitlarini yaratish, fan-texnika, texnologiyalar rivojlanishiga taaluqli adabiyot, informatsion materiallarni keltirish), buning asosida davlat ta'lim standartlari, o'quv dasturlari, o'quv adabiyotlarini takomillashtirib borishni ta'minlash, ilmiy izlanishlarni yo'naltirib borish;
- Marketing xizmatini rivojlantirib, ta'lim yo'nalishi va ixtisosliklarga talab va ehtiyojni o'rganishni, bitiruvchilarni amalda ishga joylashishi tahlilini, mutaxassislarni maqsadli tayyorlash borasida hamkorlik shartnomalari tuzilishini tashkil etish;
- TATUning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va rivojlantirish tadbirlarini ishlab chiqish va amalga oshirish, TATU Ilmiy Kengashiga rahbarlik qilish, TATUning tarkibiy tuzilishini

takomillashtirish, tarkibiy bo'linmalarini tashkil etish, tugatish, o'zgartirish;

- Xorijiy hamkorlar bilan ilmiy-ijodiy aloqalarni rivojlantirish, investitsiya va grantlar jalb etilishini ta'minlash, qo'shma korxonalar (kafedra, ilmiy markaz, ilmiy tadqiqotlar, loyihalar va h.k.)lar tashkil etish faoliyatini amalga oshirish;
- Jamoat tashkilotlari, vasiylar kengashi va boshqa shu kabi nodavlat tashkilotlar bilan hamkorlik faoliyatini olib borish;
- Ta'lim jarayonini boshqarish bo'yicha vakolatli organlar tomonidan belgilangan boshqa vazifalar ijrosini ta'minlash;
- O'zining xizmat vazifalarini vijdonan bajarish.

Biografiya:

- 1984-1985 yy. - Toshkent elektrotexnika aloqa instituti avtomatlashtirilgan elektr aloqa kafedrasida laborant
- 1985-1987 yy. - Harbiy xizmatda
- 1987-1988 yy. - Toshkent elektrotexnika aloqa instituti telekommunikatsiya tarmoqlari va kommutatsiya tizimlari kafedrasida texnigi
- 1988-1994 yy. - Toshkent elektrotexnika aloqa instituti telekommunikatsiya tarmoqlari va kommutatsiya tizimlari kafedrasida ishlab chiqarish ustasi
- 1994-2003 yy. - Toshkent elektrotexnika aloqa instituti birlashgan kasaba uyushmasi qo'mitasi raisi
- 2003-2009 yy. - Toshkent axborot texnologiyalari universiteti moliya va iqtisod masalalari bo'yicha prorektori
- 2009-2012 yy. - O'zbekiston aloqa xodimlari kasaba uyushmasi Markaziy kengashi raisi
- 2012-2014 yy. - Toshkent axborot texnologiyalari universiteti o'quv ishlari bo'yicha birinchi prorektori
- 2014-2016 yy. - O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi Kengashi raisi o'rinbosari
- 2016-2017 yy. - Toshkent axborot texnologiyalari universiteti rektori
- 2017 y.-h.v. - Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti rektori